

To'fon



13:35 / 08.01.2020 3249

19

Allohning va'dasi keldi. Alloh asrasin.

Osmon yomg'ir yog'dirdi, yog'dirdi, yog'dirdi va yana yog'dirdi. U hatto suvni ushlab qola olmaydigan elak kabi edi. Suv (erdan) otilib chiqib, oqaverganidan insonlarni har tarafdin o'rab oldi. Alloh Nuhga vahiy yuborib: "Qavmingdan va oilangdan senga iymon keltirganlarni o'zing bilan birga ol", dedi. Alloh, Nuhga o'zi bilan barcha hayvonlar va qushlardan erkak va ayol hamda juft qilib olishni vahiy qildi. Chunki to'fon, ommaviy bo'lib, undan biror inson ham biror hayvon ham qutula olmas edi. Nuh shunday qildi, u bilan birga o'z qavmidan iymon keltirganlar bor edi. Barcha hayvonlardan va qushlardan bir jufti bor edi. Kema, tog' kabi mavjda oqib ketar edi. Qavm, Allohning azobidan qochgan holda har-bir qir adir va balandliklarga ko'tarilishar edi. Lekin Allohdan qochib bo'lmaydi faqat Uning O'ziga boriladi.